

MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLARI BAZASI BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

Kasimova Nargiza Rixsivoy qizi

Toshkent temir yo‘l texnikumi

“Buxgalteriya hisobi va audit” o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahalliy byudjetlar daromadlari bazasi barqarorligini oshirish hamda byudjetlararo munosabatlarni samarali tashkil etish masalalari yoritilgan.

Tayanch iboralar: byudjet, soliq, daromad, xarajat, dotatsiya, stavka.

Kirish

Hozirgi kunda eng muhim masalalardan biri bu - byudjetlar o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish va ularning iqtisodiy potensialidan foydalanish muammosidir. Mamlakat soliq tizimidagi muammolar iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalashning chuqurlashib borishiga mutanosib ravishda bosqichma-bosqich bartaraf etib borilmoqda.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjet masalasi juda muhim va murakkab masala bo‘lib hisoblanadi. Har bir hududning rivoji, aholisining turmush sharoiti, ijtimoiy himoya, kam ta‘minlangan oila va shaxslarni etarli darajada ijtimoiy himoya qilish, har bir hududdagi davlat hokimiyati organlarining moliyaviy masalalarini to‘g‘ri hal qila bilishga bog‘liqdir.

Mahalliy byudjetlarning daromad bazasini tubdan mustahkamlash va nomarkazlashtirish asosida hududlarni kompleks rivojlantirishni barqaror moliyalashtirish, byudjetlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini kuchaytirish, kichik biznes va

xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish, yangi ish joylari yaratish hamda aholi bandligini ta'minlash, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish hisobiga soliq salohiyatini kengaytirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ularning mas'uliyatini oshirishni ta'minlash asosiy maqsadimizdir[1]

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashning hozirgi davrida hududlarni moliyaviy barqarorligini ta'minlashda mahalliy byudjetlarning ahamiyati yanada ortmoqdaki, ushbu maqsadda mahalliy byudjetlarni daromadlar bazasini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi

Mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini oshirish va ulardan samarali foydalanish hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar davlat byudjetining asosini tashkil etganligi uchun mahalliy byudjetlar daromadlarni oshirish mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga hissa ko'shish bilan bir qatorda hududlar iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimiz moliya-byudjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar hududiy iqtisodiyot muammolarining keskinlashuvi sharoitida mahalliy byudjetlar moliyaviy imkoniyatlarini yanada oshirish zaruriyatini ko'rsatmoqda.

Mahalliy byudjetlar daromad bazasini yanada mustahkamlashda byudjetlararo munosabatlarni isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri - mahalliy hokimiyatlarning soliq tushumlarini oshirishdan manfaatdorligini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mulkka, erga, resurslarga soliq solish va yuqorida ko'rsatilgan boshqa turdagi tushumlar alohida o'rin tutadi.

Mahalliy byudjetlarni mustahkamlashning yana bir muhim manbasi - jismoniy shaxslar daromad solig'ini mahalliy byudjetlarga biriktirib qo'yilishidir. SHuningdek, soliqlar katorida soliqsiz yig'imlar xam byudjetlarning muhim manbasi bo'lib qolishi

kerak. Chunki, soliq yukini oshirish chegaralanganligini hisobga olsak, bu muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy byudjetlar daromadlar bazasini mustahkamlash, byudjetlararo munosabatlarni tartiblashtirish va davlat moliyaviy mablag'larini boshqarishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, iqtisodiyotimizning modernizatsiyalash sharoitida byudjet tizimini barqarorligini ta'minlash va mavqeini oshirishdagi muhim strategik vazifasi sifatida maydonga chiqmoqda.

Bugungi kunda byudjetlarni tartibga solishning bir nechta usullari amaliyotda keng qo'llanilib kelinmoqda. Jumladan, umumdavlat soliqlari hisobidan belgilangan ma'lum qismini hududiy byudjetlar ixtiyorida qoldirish uslubi jahon tajribasida keng tarqalgandir. Umumdavlat soliqlari hisobidan ma'lum belgilangan qismini mahalliy byudjetlar ixtiyorida qoldirish bo'yicha qarorlarni qabul qilishda hududlarning moliyaviy ahvoli va o'z daromadlarining hajmi; hududlarda umumdavlat vazifalarining va dasturlarning mavjudligi; tovarlar va xizmatlar narxlaridagi farqlarning mavjudligi; aholi soni, tarkibi va zichligi; hududlarda joylashgan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning byudjet mablag'lariga bo'lgan talablari e'tiborga olinadi.

Hozirgi vaqtda respublikamizda umumdavlat soliqlaridan qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan yagona soliq to'lovi, mikrofirma va kichik korxonalaridan yagona soliq to'lovi hamda er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlar qonun bilan belgilangan tartib va me'yorlar asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlari o'rtasida taqsimlanadi.

Ma'lumki, mahalliy byudjetlar daromadi asosan mahalliy soliqlar, soliq funksiyasini bajaruvchi majburiy to'lovlar, shuningdek, qonun bilan ta'qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan tarkib topib, shakllangan mablag'lar mahalliy ahamiyat kasb etuvchi chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun sarf-xarajat qilinadi. Respublika byudjeti daromdlari asosan umumdavlat soliqlari va qonun bilan ta'qiqlanmagan boshqa moliyaviy manbalardan shakllanib, asosan umumjamiyat ahamiyat kasb etuvchi chora-tadbirlarni moliyalashtirish maqsadida sarf-xarajatlarni amalga oshiriladi.

Odatda, mahalliy byudjetlar va respublika byudjeti o'rtasida biriktirilgan daromadlar borasidagi nisbat o'rganilganda, ular mos ravishda 20-25 va 75-80 foizni tashkil etadi. Ammo xarajatlardagi nisbat bir oz farq qilib, mahalliy byudjetlar taxminan 55 foiz, qolgan 45 foizni respublika byudjetidan moliyalashtirish amalga oshiriladi. Tabiiy savol tug'iladi, biriktirilgan daromadi maksimum 25 foiz bo'lgan bir sharoitda qanday qilib 55 foiz xarajatlarni amalga oshirish mumkin? O'rinli savol, albatta. Yuqorida qayd etilganidek, mahalliy biriktirilgan soliq va soliq funksiyasini bajaruvchi majburiy to'lovlardan tashqari qonun orqali ta'qiqlanmagan boshqa daromad manbalari deyilganda, aynan umumdavlat soliqlaridan normal ajratmalar va yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarib bermaslik sharti bilan ajratiladigan subvensiyalar moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi. [2]

Mamlakatimiz bo'yicha mahalliy byudjetlar daromadi 31 083,0 mlrd. so'mni tashkil etib, har bir hududda byudjet muassaslarining soni va u yerda byudjet mablag'lari oluvchilarning ko'lamidan kelib chiqqan holda taqsimlangan. Ma'lumotga tayanib aytadigan bo'lsak, mahalliy byudjetlar ichida eng ko'p mablag' oladigan hudud Farg'ona viloyati bo'lib, 4 038,0 mlrd. so'mni tashkil etadi. Undan keyingi mahalliy byudjetlar tarkibiga Qashqadaryo viloyati va Toshkent shahri bo'lib, mos ravishda 3493,7 va 3236,2 mlrd. so'mni tashkil etmoqda. Mahalliy byudjetlar daromadidagi nisbatan kam bo'lgan xududlarni tahlil etadigan bo'lsak,

Sirdaryo, Jizzax va Xorazm viloyatlari bo'lib, bularning daromadlari mos ravishda 736,3; 1106,2 va 1232,2 mln. so'mni tashkil etmoqda.

Shu holatni alohida qayd etish joizki, Andijon, Jizzax, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlariga 2019 yilda respublika byudjetidan qaytarib bermaslik sharti bilan 7 763,1 mlrd. so'm miqdorida maqsadli ijtimoiy transferlar ajratilishi ko'zda tutilgan. Respublikaning qolgan xududlari respublika byudjetidan subvensiya olishga hojat qolmayapti. Bu, o'z navbatida, mahalliy byudjet boshqaruv hodimlari va viloyat moliya boshqarmalari samarali mehnat qilyapti deyishga asos bo'lmoqda.

Kelgusida O'zbekistonda byudjetlararo mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy byudjetning daromadlarini oshirishda sanoat ishlab chiqarishni oshirish hisobiga soliq solinadigan bazani kengaytirish, hududlar soliq potentsiali tushunchasini soliq qonunchiligiga kiritgan holda har bir hududning soliq potentsialini hisoblab chiqish, uni orttirish borasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusini rag'batlantirish mexanizmini yaratish lozim.

Mahalliy byudjetlarning daromadlarini barqarorlashtirish va bu orqali soliq tushumlarini ko'paytirish avvalombor, soliq tizimini takomillashtirishni taqazo etadi. Respublikamiz soliq tizimi mavjud soliq tizimini amaliy tadbiq qilish va davlat iqtisodiy siyosatining yo'nalishlariga mos ravishda olib borayotgan ishlar natijalarini hisobga olgan holda, doimo takomillashib bormoqda.

Mahalliy byudjetlarning daromadlarini barqarorlashtirish va bu orqali soliq tushumlarini ko'paytirish avvalombor, soliq tizimini takomillashtirishni taqazo etadi. Respublikamiz soliq tizimi mavjud soliq tizimini amaliy tadbiq qilish va davlat iqtisodiy siyosatining yo'nalishlariga mos ravishda olib borayotgan ishlar natijalarini hisobga olgan holda, doimo takomillashib bormoqda.

Fikrimizcha, byudjet daromadlarini ko'paytirishda, jismoniy shaxslar mulklaridan olinadigan soliqni ham takomillashtirish zarur. Bu aholining mulkiy

holati bo'yicha tabaqalanish sharoitlarida juda ham muhim. Mulkning qiymatiga qarab darajalangan soliq stavkalarini joriy qilish maqsadida muvofiq bo'ladi. Belgilangan me'yor bo'yicha uy-joy maydoni va er uchastkalariga ega bo'lgan oilalardan minimal stavka bo'yicha soliq olish lozim. Belgilangan normadan bir necha baravar ortiq mulkka ega bo'lgan oilalardan yuqori stavkalar bo'yicha soliq olish joiz. Buni shu bilan oqlash mumkinki. Xususiy mulkdorlarning shakllanayotgan yangi qatlami jamg'armalardan qurilish youi qo'shimcha uy-joy sotib olish uchun foydalanadilar va ularni keyinchalik ijaraga beradilar.

Bunday fuqarolar qo'shimcha mulk bilan bog'liq bo'lgan renta xarajatlarini bemalol ko'tara oladilar va bu davlat hamda mahalliy byudjet daromad oqimlarini ko'paytirishni ta'minlaydi.

Byudjet Kodeksiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar balanslashgan bo'lishi lozim, ya'ni ushbu hududlar byudjetlari defitsitli bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar balanslashganligi umumdavlat soliqlarini O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan hamda yuqori turuvchi byudjetlardan beriladigan me'yoriy ajratmalar va moliyaviy yordamni taqsimlash va qayta taqsimlash hisobiga amalga oshiriladi. O'zbekiston amaliyotida deyarli barcha umumdavlat soliqlaridan tartibga soluvchi soliq sifatida foydalanilishini kuzatishimiz mumkin.

Me'yorlarni aniqlashda mahalliy va umumdavlat soliqlari hamda tegishli byudjetlar minimal xarajatlari prognozi amalga oshirilib, unga muvofiq ajratmalar me'yori aniqlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri byudjetlariga ajratmalar me'yori har yili Oliy Majlis tomonidan davlat byudjeti qabul qilingandan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

Tuman va shaharlar byudjetlariga ajratmalar miqdori ham har yili Qoraqalpog‘iston Respublikasi vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlari asosida ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Xalqaro amaliyotda soliq vakolatlarini byudjetlar o‘rtasida taqsimlashning 3 ta asosiy modelidan foydalaniladi. Federativ tizim hamda ko‘p munitsipial sub’ektlarga ega mamlakatlar amaliyotida ko‘p hollarda barcha 3 ta modeldan foydalanish kuzatiladi.

Birinchi model – soliqlarni yig‘ish bo‘yicha vakolatlar chegaralarini o‘rnatish va ularni ma’lum hukumat darajasiga biriktirish. O‘zbekiston amaliyotida ushbu modeldan foydalaniladi, rasman har bir soliq turi qaysidir byudjet darajasiga biriktirilgan, ya’ni umumdavlat va mahalliy soliqlar.

Ikkinchi model – soliqqa tortish bazasidan birgalikda foydalanish. Bu modeldan Rossiya Federatsiyasida foydalanilishini kuzatishimiz mumkin. Xususan, korxonalar foydasiga soliq stavkasi 20% ni tashkil etadi, uning 2% dagi miqdori Federal Byudjetga tushishi ko‘zda tutilgan bo‘lsa, qolgan 18% i RF sub’ektlari ixtiyorida qoladi.

Uchinchi model – butun mamlakat hududida yagona stavkada soliqqa tortiladigan aniq soliqlardan kelib tushadigan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o‘rtasida me’yoriy taqsimlash.

O‘zbekiston Respublikasida birinchi va ikkinchi modellar byudjetlararo munosabatlarni tartibga solish uchun keng qo‘llaniladi. Xususan, yuqorida ta’kidlanganidek, birinchi modelga asosan soliqlar ma’lum bir byudjet darajasiga biriktirilgan. Ikkinchi model, tartibga soluvchi soliqlarni mahalliy byudjetlar o‘rtasida taqsimlanishida foydalaniladi.

2019 yil uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga umumdavlat soliqlari tushumlaridan ajratmalar normativlari keltirilgan bo‘lib, 2019 yilda mahalliy byudjetlarga yuridik shaxslar foyda solig‘i, jismoniy shaxslar daromad solig‘i va QQSdan ajratmalar ajratilgan. Yuridik shaxslar foyda solig‘i Toshkent viloyati va Toshkent shahridan tashqari barcha hududlarga to‘liq miqdorda ajratilgan, shuningdek jismoniy shaxslar daromad solig‘i ham mazkur hududlarga boshqalariga nisbatan qamrov ya’ni, Toshkent viloyatiga 77 foiz, Toshkent shahriga esa 10 foiz miqdorida ajratma qilingan. Qo‘shilgan qiymat solig‘i Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Namangan viloyati va Farg‘ona viloyatiga to‘liq 100 miqdorda, boshqa hududlarga nisbatan kamroq miqdorda ajratma qilinishi belgilangan, Toshkent shahriga esa, mazkur soliqdan ajratma qilinishi ko‘zda tutilmagan.

Xulosa

Mahalliy byudjetlarning soliq yig‘imlarini yig‘ish, o‘z navbatida, yuqori byudjetdan subvensiya va moliyaviy yordamning boshqa shakllari olinishini qisqartirish faolligi va qiziqishini oshirish maqsadida rejalashtirilgan ko‘rsatkichlardan ortiqcha yig‘ilgan soliqlarni taqsimlashning aniq va tushunarli mexanizmini ishlab chiqish zarur. Bu rejadagidan ortiqcha yig‘ilgan soliqlarning mahalliy byudjetlarda qoladigan miqdorini aniqlash va ularning qonuniy asosda tasdiqlanishini ko‘zda tutadi.

Mahalliy byudjetlarning daromad qismini shakllantirish muammolarini hal qilish maqsadida moliya bozorlaridan jalb qilingan mablag‘lar ko‘rinishidagi daromad tushumlarini mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qo‘llanilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Buning uchun:

– mintaqalardagi rejimlarini muvozanatlashni va byudjet ehtiyojlarini ta’minlashni muvofiqlashtirish uchun, mahalliy hokimiyat organlarining soliq siyosatini ishlab chiqishda va amalga oshirishda faol ishtirok etish huquqini qonunan rasmiylashtirish;

– mintaqaning ijtimoiy va investitsiya manfaatlarini hisobga olgan holda imtiyozli soliq solishning ustivor yo‘nalishlarini belgilash, uning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini kafolatlaydigan soliq tadbirlari bo‘yicha huquqiy me‘eriy xujjatlarni shakllantirish kabi vazifalarni bajarish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet Kodeksi”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 52 (I)-son, 2013 yil, 31 dekabr – 212 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. 2017 yil 7 fevral.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2847 sonli qarori. 2017 yil 18 mart.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo‘ljallari to‘g‘risida”gi 4086-sonli qarori.

5. Islamkulov A. Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda soliq potensialidan foydalanish masalalari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2017 yil.

6. Qobulov H.A. Hududiy iqtisodiyot va mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini oshirish yo‘nalishlari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferati. T.-2006. – 24 b.

7. Xaydarov N.X. Mahalliy byudjetlar daromadini oshirishning samarali yo‘llari. Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirishda davlat moliyasini isloh qilishning ustivor yo‘nalishlari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.: DBA. 2017 yil, 12 aprel. 463-466 betlar.